



NAZAR ESHONQULNING BADIYIJOD HAQIDAGI O'YLARI, QARASHLARI

Sagatova Dilrabo Baxodir qizi

Nazar Eshonqul adabiyot olamiga modernizm yo'nalishidagi ijodi bilan kirib keldi. «Modernizm – falsafa, san'at va adabiyot sohasidagi noklassik qarashlar tizimini umumlashtiruvchi atama. Kunbotish mamlakatlarida yuzaga kelib, fransuzcha “eng yangi”, “zamonaviy” ma'nolarini anglatuvchi modernizm o'zini o'sha zamon hamda kelajakdagi yagona haqiqiy estetik va falsafiy yo'nalish hisoblab, olamni falsafiy-badiiy idrok etish, izohlash va tasvirlash borasida mavjud bo'lgan an'anaviy yondashuvlarni inkor qilish bilan ajralib turadi. Modernizm olam hodisalari va odamga munosabat, ulardagi turli-tuman holatlarni izohlash va tasvirlashda o'ziga hoslikka intilib, klassik yondashuv yo'sinini inkor etish yo'lidan borgan g'oyat ko'p tormoqli falsafiy-estetik hodisadir⁵⁶». Bu yo'nalish mamlakatimiz ijod olamiga kirib kelganiga o'ttiz yildan oshgan bo'lsa-da, bu oqim «bizga kerakmi» deydiganlar, «Modernizm»ni tushunarsiz adabiyot deb ataydiganlar ko'p. Modernizm nima ekanligini bilish uchun avval ijod nima ekanligini tushunib olishimizga to'g'ri keladi. Biz mazkur bobimizda Nazar Eshonqulning ijod olami haqidagi falsafiy fikrlari, tushunchalari, o'ylari haqida to'xtalib o'tishga harakat qilamiz.

Inson har doim ijod qilishga, kashf qilishga intilib yashagan. Balki buning sababi insonning o'zi ijod mahsuli ekanligidadir. Balki, ijod tufayli inson hozirgi taraqqiy etgan darajasiga yetib kelgandir. Qadimgi ibtidoiy davrdan boshlab insonlar ijod bilan, xususan, badiiy ijod bilan mashg'ul bo'lganlar. Miflar, afsona-yu rivoyatlar bir necha ming yillik tarixga ega. «Madomiki, badiiy ijod bilishga qaratilgan jarayon ekan, demak badiiy adabiyot ham ongga aloqador hodisadir. Faqat bunda bilishning san'atga xos yo'lidan boriladi – adabiyot badiiy obroz vositasida fikrlaydi va ifodalaydi. Shunga binoan, adabiyot ikkiyoqlama hodisa, u san'atga ham, ijtimoiy ongga ham birdek aloqadordir».⁵⁷

Nazar Eshonqul adabiyot olamida nafaqat madernistik yo'nalishdagi asarlari bilan, shuningdek, badiiy ijod haqidagi qarashlari bilan ham alohida ahamiyatga ega adibdir. «Olam butun edi, keyin parchalandi, zarralarga bo'linib ketdi. Zarralarga bo'linish hamma hamma fojeaning asosi bo'ldi. Dunyo ana shu parchalanishning uqubat va buhronlarini boshdan kechiryapti. Ijod esa zarralarni butunlikka tomon undaydi, yaxshilikka, birikishga boradigan yo'llarni ko'rsatadi, tahlil qiladi. Ana shu yaxlitlikka undashi bilan u yaratgan mahsulotlarning hammasi tarbiyaviydir».⁵⁸ Adib takidlaganidek ijod qilishdan

⁵⁶Қозоқбой Йўлдош. Бадий таҳлил асослари. Камалак. Тошкент 2016 йил. 377-бет

⁵⁷ Дилмурод Қуроноф. Адабиёт назарияси асослари. Навоий университети. 2018-йил. 40- бет

⁵⁸ Назар Эшонкул. Ижод фалсафаси. Академик н. Тошкент. 2018-йил. 8- бет





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

eng birinchi maqsad tarbiyaviylikdir. Ya'ni har qanday ijod mahsuli go'zallik yaratish bilan birga, ana shu go'zallik orqali inson ruhini tarbiyalaydi. Ruhiyati tarbiyalangan inson esa komil insondir. Shuning uchun ham ming yillardan beri buyuk shaxslar ijod qilishga va o'sha ijodlarini kitob holiga keltirishga urinadilar. «Kitobsiz xalq – madaniyatsiz xalq, madaniyatsiz elat, madaniyatsiz qavm. Hayotida kitob paydo bo'lmas ekan, ular jaholat botqo'g'iga botib yotaverishadi... Agar dinlar tarixiga nazar solsangiz, insoniyatni jaholatdan, jaholatga g'arq bo'lgan qavmlar kabi yashashdan qutqarish uchun kitoblar tushgan».⁵⁹ O'tkir Hoshimov o'zining «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» asarida aynan kitobni «sakkizinchi mo'jiza deb ataydi. Darhaqiqat, kitobsiz bu olam shak-shubhasizb buncha ko'p madaniy, axloqiy yutuqlarga erisha olmasdi. Shu narsa aniqki, agar kitob bo'lmasa inson allaqachaonlar ma'naviy tanazzulga uchragan, oqibatda inson degan nom o'zining « azizlik» sifatini yo'qotib qo'ygan bo'lar edi. Nazar Eshonqul ham inson hayotida kitob muhim ahamiyat kasb qilishini, inson tarbiyasida badiiy kitobning o'rni katta va beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. «Insoniyatning bugungi ko'plab fojealari ma'lum ma'noda adabiyotdan uzoqlashishi yoki u bilan bog'liq ekani dunyo allomalari o'rtasida tahlil qilingan va qilinayapti».⁶⁰

Nazar Eshonqul ijod olami haqida fikr bildirar ekan: «Ijod mas'uliyatini unutib yozilgan va bizga adabiyot kiyofasida taqdim qilingan bitiklar ko'p. Aynan shuning uchun ham kitobni farqlab o'qitish kerak»,- deydi.⁶¹ Haqiqatdan ham bugun adabiyot olamiga, xususan kitob dunyosiga nazar tashlar ekanmiz «bozor adabiyoti», «bozor ijodi» degan mahsulotlar kitob rastalarini egallab olayotganini guvohi bo'lamiz. Bu juda achinari holdir. «Bozor adabiyotiga boy berilgan dil, ong, shuur, fikrlash, umuman, barcha ezgu hislatlarni manaviyatsizlik, didsizlik, ongsizlik botqog'iga botiradi. Ayniqsa, o'sib boryotgan yosh avlodni bu havfdan xalos qilish muhimdir. Zero, bugungi ta'lim sistemamizning bosh g'oyasi «mustaqil fikrlardigan», «ijodkor» yoshlarni tarbiyalashdan iborat. «Adabiyot – tarbiya vositasi. Buni inkor qilish tafakkurni, ongni, ma'naviyatni, insoniylikni, so'zning muqaddasligini va uni ilohiyot bilan bog'lab turuvchi rishtalarni tan olmaslik, rad etish bilan borabardir».⁶² Ijod bu – mashaqqatli jarayon. Shu bilan birga ilohiy hodisa hamdir. Yozuvchi biron-bir ijod mahsuli yaratar ekanlar, o'sha ijod mahsulini «farzandim» deb aytadilar. Buning ma'nosi ijod jarayoni bola tug'ishdek mashaqqatli va boladek beg'ubor jarayon ekanligini anglatadi. «Inson zoti orzu-umidlari, ezgu niyyatlari bilan tirik. Ayniqsa, ijod ahlining hayoliga ko'plab ilmiy, adabiy, ijodiy rejalar kezib yuradi. Pishib yetiladi. Qog'ozga tushadi. O'quvchilarga yetib boradi. Nimadandir ko'ngli to'lsa, shukrona aytadi...».⁶³ Lekin shu narsani ham nazardan chetda qoldirmasligimiz kerakki, har qanday qog'ozga tushgan satrlarni biz ijod mahsuli, badiiy

⁵⁹ Назар Эшонқул. Ижод фалсафаси. Академик н. Тошкент. 2018-йил. 8- бет

⁶⁰ Назар Эшонқул. Ижод фалсафаси. Академик н. Тошкент. 2018-йил. 8- бет

⁶¹ Назар Эшонқул. Ижод фалсафаси. Академик н. Тошкент. 2018-йил. 13- бет

⁶² Назар Эшонқул. Ижод фалсафаси. Академик н. Тошкент. 2018-йил. 7- бет

⁶³ Баҳодир Қарим. Рухият алифбоси Г'. Г'улом нашрети. Тошкент. 2016-йил. 3-бет





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

adabiyot deya olmaymiz. Nazar Eshonqul bugungi badiiy ijod olami haqida o'z qarashlarini bayon qilar ekan, jumladan shunday deydi: «Adabiyotdagi obrazlarning «yaxshilar» va «yomonlarga» bo'linishi, o'quvchida faqat shu taassurotlar uyg'otishi bugun adabiyot haqidagi jo'n tasavvur bo'lib qoldi. Chunki bugun Rahmon va Shayton o'rtasidagi kurash odamzodning ichiga ko'chdi. Ilg'or adabiyotlar ham endi kurash sahnasini voqealarga emas, zamon kabi o'ta murakkablashgan odamning ichiga ko'chdi».⁶⁴ Insoniyat turmush tarzida XX asr oxiri XXI asar boshlarida texnika inqilobi yuz berdi. Bu davrda axborot-texnologiyalari misli ko'rilmagan darajada rivojlandi, o'zgardi va yuksaldi. Hayotga teranroq nazar solar ekanmiz, xuddi texnologiya kabi insonni ichki olami, ruhiyatida ham juda katta o'zgarishlar, evrilishlar yuz berdi. Shunday ekan, Nazar Eshonqul aytganidek, badiiy ijod olami ham o'zgardi va adabiyotda insonning ichki olamini tasvirlab berish asosiy o'ringa chiqdi. Nega bunday bo'ldi? Chunki adabiyot bu insonshunoslikdir. Adabiyotning bosh mavzusi, bosh qahramoni har zamonda, har makonda ham inson bo'lib kelgan. Shuning uchun ham inson adabiyotga qarab emas, adabiyot inson kayfiyatiga, ruhiy olamiga qarab o'zgarib boradi.

Nazar Eshonqul ijod haqidagi fikrlari, o'y-hayollari, qarashlari o'ziga hos bo'lgan ijodkordir. Adib o'zining badiiy ijod haqidagi fikrlarini "Ijod falsafasi" kitobida jamlaydi. Bu kitobda ijod, dunyo ijodkorlari haqida fikr-mulohazalarini bayon qiladi. Nazar Eshonqul zamonaviy o'zbek adabiyotida nafaqat asarlari, balki ilmiy chiqishlari, maqolari, falsafiy fikrlari, badiiy ijodga olamiga o'zgacha qarashlari bilan ajralib turadi



⁶⁴ Назар Эшонқул. Ижод фалсафаси. Академик н. Тошкент. 2018 21- бет

